

**6-7 YOSHLI BOLALAR UCHUN MO'LJALLANGAN MAJBURIY BOSHLANG'ICH
TA'LIMGA BIR YILLIK TAYYORLASH GURUHLARIDA BOLA PORTFOLIYOSINI
YARATISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

Saydillayeva Mehrinaz Bahodir qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lism fakulteti

"Maktabgacha ta'lism nazariyasi" kafedrasini o'qituvchisi.

Elektron manil. mehrinozsaydullaeva@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda jamiyatimizda amalgal oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi siyosiy va iqtisodiy sohalar bilan bir qatorda ta'lism tizimini tubdan o'zgartirish, uni zamon talabi darajasiga ko'tarish maqsadlari ilgari surilmoqda va amaldagi chordalarini ko'rish maqsadida bir qator mazmunli ishlar izchil amalgal oshirib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi "Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar haqida"gi 999-sonli qarorini ijro etish doirasida O'zbekiston o'zzimmasiga 6-7 yoshli bolalarning muktabga to'lovsiz majburiy bir yillik tayyorgarligi bo'yicha majburiyatni oldi. 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta'lism tarbiya berish va muktabga tayyorlash maqsadida qamrab olinmagan bolalar uchun majburiy bepul bir yillik talim joriy qilindi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lism vazirligining tashabbusi bilan 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta'lism tarbiya berish va muktabga tayyorlash maqsadida joriy qilingan ushbu talim bolaning psixik rivojlanishida balki ijtimoiy hayotdagi munosib o'rni uchun muhim rol o'ynaydi.

Аннотация: Главной целью реформ, реализуемых сегодня в нашем обществе, является коренное изменение системы образования, наряду с политической и экономической сферами, выдвигаются цели поднятия ее на уровень современных требований, а в целях принятия практических мероприятий, последовательно осуществляется ряд содержательных работ. В рамках реализации постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан № 999 от 8 декабря 2018 года «О мерах по поэтапному переходу на обязательную годовую подготовку детей к начальному образованию» Узбекистан взял на себя обязательство детей 6-7 лет бесплатно посещать школу в течение одного года. В целях всестороннего развития детей 6-7 лет, обеспечения их образованием и подготовки к школе для неохваченных детей было введено обязательное бесплатное годичное обучение. По инициативе Министерства дошкольного образования Республики Узбекистан эта дисциплина, введенная в целях всестороннего развития детей 6-7 лет, обеспечения их образования и подготовки к школе, играет важную роль в умственной развития ребенка, а также для его надлежащего места в общественной жизни.

Annotation: The main goal of the reforms being implemented today in our society is a radical change in the education system, along with the political and economic spheres, the goals of raising it to the level of modern requirements are put forward, and in order to take practical measures, a number of

meaningful works are being consistently carried out. As part of the implementation of the Decree of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 999 dated December 8, 2018 "On measures for a phased transition to compulsory annual preparation of children for primary education", Uzbekistan has committed itself to children aged 6-7 years old attending school free of charge for one year. For the purpose of the comprehensive development of children aged 6-7, providing them with education and preparing for school for unreached children, compulsory free one-year education was introduced. At the initiative of the Ministry of Preschool Education of the Republic of Uzbekistan, this discipline, introduced for the comprehensive development of children 6-7 years old, ensuring their education and preparation for school, plays an important role in the mental development of the child, as well as for his proper place in public life.

Ta'lim tizimida portfolio tushunchasi kirib kelganiga ham bir asr muddat bo'lmoqda. Ta'lim tarbiya jarayonlarini modernizatsiya qilish, ijodiy fikrlovchi, ta'limning zamonaviy metod va texnologiyalarini samarali qo'llashni talab etadi. Shu boisdan salohiyatl pedagoglarga bo'lgan talab kundan- kunga ortib bormoqda. Va bu pedagoglarning elektron portfoliosini ishlab chiqishni talab etmoqda. Pedagogning ish namunlari, fotosuratlari, mutaxassis faoliyati namunalar jamlanmasi ham porfolio deyiladi. Shu o'rinda portfolio tarixi bilan tanishib chiqamiz.

"Portfolio" tushunchasi XV-XVI asrlarda G'arbiy Yevropadan kirib kelgan bo'lib, uyg'onish davrida arxitektorlar o'z buyurtmachilariga qurilish loyihamalarini tayyor va xomaki nusxalarini "portfolio" deb nomlangan papkada taqdim etishgan. Portfolioni ta'lim sohasida qo'llash g'oyasi, 80-yillarning o'rtalarida AQShda paydo bo'ldi. AQSh va Kanadadan so'ng portfolio g'oyasi Yevropa va Yaponiyada ommalashdi. Asrimizning boshlarida esa bu g'oya Rossiyada va hozirga kelib yurtimizda ham keng qo'llanilmoqda. Portfolio so'zi ingliz tilidan tarjima qilinganda "muhim hujjatlar papkasi" degan manoni bildiradi. Shuningdek portfolio shaxsning muayyan yutuqlari jamlangan asosiy hujjatlar jamlanmasi hisoblanadi. Ta'limda pedagog portfoliosi degan tushuncha mavjud. Pedagog portfoliosi bu- uning pedagogik salohiyati, yutuqlari va ish jarayonidagi professionalligini ifodolovchi malumotlar yig'indisi hisoblanadi. Pedagog portfoliosi bir nechta turlarga bo'linadi.


6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich talimga bir yillik tayyorlash guruhlarida bola portfoliyasini yaratish orqali bola shaxsining rivojlanishidagi asosiy sohalar (jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish) integratsiyalashgan yondashuv bola rivojlanishining yaxlitligini ta'minlaydi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev quyidagi fikrlarni bildiradi: " Bizni hamisha o'yantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan

erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan". Haqiqatdan ham, ta'lim islohotlari insonning muayyan darajada intellektual salohiyatining yuzaga chiqishiga, uning jamiyatda o'z o'rmini topishiga katta yordam berdi.

"Portfolio". Bu bolaning qisqa muddatli guruhgaga kelganidan tortib ta'limni yakunlagunga qadar yutuqlari va ishlarining individual to'plami. Portfoliodan rivojlanishning o'z-o'ziga baho berish vositasi foydalanish, unga bolaning o'z fikr-mulohazalarini aks ettirishga harakat qilib, so'zlar va sonlarni yozishga urinishlarini, nuqt namunalarini ham kiritish mumkin. Bundan tashqari, ota-onalarning ruxsati bilan bola faoliyatini aks ettiradigan fotosuratlarni, og'zaki nutqlari yozilgan audiodisklarni tanlab olish mumkin. Bolalar ularga tegishli bo'lga portfelio ota-onalarga ko'rsatilishi bilishi lozim.

Natijada ayrim hollarda majburiy bir yillik maktabga tayyorlov guruhlarga rivojlanishida muayyan muammolari, mustaqil faoliyatni yetarli darajada amalga oshira olmaydigan, maqsadga erishish uchun irodasi bo'sh, o'zaro hurmat, umumqabul qilingan me'yor va qoidalar asosida boshqalar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil eta olmaydigan bolalar qabul qilinadi.



Bundan tashqari, ayrim bolalarda sensor ko'nikmalar, tasavvurlarining rivojlanmagani, hissiyot olamining qashshoqligi kuzatiladi. Uydagi ta'lim-tarbiyaning turli-tuman sharoitlari ta'sirida bolalar rivojlanishining alohida sohalari bo'yicha erishilgan natijalarning har-xilligini qayd etish muhim. Boshlang'ich majburiy bir yillik maktabga tayyorlov guruhlarga kelayotgan bolalarga xos ana shu xususiyatlarni ta'lim jarayonida albatta e'tiborga olish, ularni ota-onalar xohishiga binoan aqliy rivolashtirishga emas, balki umumrivojlantiruvchi vazifalarni hal etishga, bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga yo'naltirgan ma'qul.

Hozirgi rivojlangan ta'lim tizimida majburiy bir yillik ta'limda bola portfoliosini jamlash orqali bolada **matematik tasavvurlarning ijobiy suratlarda rivojlanganini kuzatish** mumkin. Majburiy boshlang'ich ta'lim guruhiga yil boshidan ilk qadam qo'ygan bola ko'p hollarda sanoqni, kichik sonlar hisobini va shunga o'xshash kichik matematik amallarni bilmasliklari kuzatiladi. Ammo o'quv yili oxirida bolada matematik tasavvurlarni ancha yuqori suratlarda o'sganligini yil davomida bola portfoliosida jamlangan faoliyat ishtiroti

jamlanmalari orqali kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari bolada nutqning to‘g‘ri shakllanganligi, fikrlarini ifoda eta olishi (kichik video kuzatuvalar orqali), tengdoshlari bilan muloqotga kirisha olishi kabi nutqiy jihatdan rivojlanishini ham kuzatishimiz mumkin. 6-7 yoshli bolada ijodiy tasavvurlarining rivojlanishini ijodiy rasm chizishlari, rang berishlari, qo‘l mehnatlari, musiqa faoliyatlaridagi ritmik harakatlari orqali kuzatishimiz mumkin.

Bolada qo‘l motorikalarini rivojlantirish orqali bolada savodxonlik, bilim olish, yozish va o‘qish malakalarining o‘sishini kuzatishimiz mumkin. Majburiy boshlang‘ich ta’lim guruhiga yil boshidan ilk qadam qo‘ygan bola ko‘p hollarda sanoqni, kichik sonlar hisobini va shunga o‘xshash kichik matematik amallarni bilmasliklari kuzatiladi. Ammo o‘quv yili oxirida bolada matematik tasavvurlarni ancha yuqori suratlarda o‘sganligini yil davomida bola portfoliosida jamlangan faoliyat ishtiroki jamlanmalari orqali kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari bolada nutqning to‘g‘ri shakllanganligi, fikrlarini ifoda eta olishi (kichik video kuzatuvalar orqali), tengdoshlari bilan muloqotga kirisha olishi kabi nutqiy jihatdan rivojlanishini ham kuzatishimiz mumkin.

Shu o‘rinda bola portfoliosining Maktabgacha ta’lim tizimidagi o‘rni u qadar ahamiyatli emasdek go‘yo. Ammo, “6-7 yoshli bolalar uchun mo‘ljallangan majburiy bir yillik boshlang‘ich ta’limda bola portfoliosini yaratish” mavzusida olib borilgan tadqiqot ishining asosi bola portfoliosi haqida bo‘lganligi uchun keltirib o‘tishim joizki, agar maktabgacha ta’lim tizimiga ta’lim olishni boshlagan tarbiyalanuvchining bola portfoliosi yuqori tartibda taxlab borilsa, va har chorakda pedagog tomonidan hisobotlar qilinib yil yakunida bolaning muktab ta’limiga tayyorgarlik darajasiga qarab, “a’lo”, “yaxshi”, “namunali”, “o‘rta” kabi darajalar berilsa va ushbu darajalarning o‘z qiymati bo‘lsa (bolaning turli nufuzli maktablarda qabul qilinishida chegirmalar, asosiy to‘garaklarning bepul amalga oshirilishi) bolaning muktab ta’limiga sifatli tayyorlanganligi va keyingi o‘qishida muvaffaqiyat qozonganligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, bilimi mustahkamlanib borishi shak-shubhasiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Farzand Tarbiyasi” M.Saydullayeva 08.11.2021
<http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/Farzand-tarbiyasi.htm>
2. “6-7 yoshli bolalar uchun majburiy bir yillik boshlang‘ich ta’limni tashkil etishning samarali yo‘llari” M. Saydullayeva Ilm-fan taraqqiyotida zamonaviy metodlarning qo‘llanilishi” mavzusidagi ilmiy onlayn konferensiyasi 27.07.2021
3. Quvvatova M. “SCIENTIFIC METHODICAL JOURNAL OF” The role and importance of the family in the formation of ecological culture in preschool children. 209-2010-b.
4. Nuritdinova X.N. “Strukturnaya organizasiya kommunikativnoy kompetensii” International Multidisciplinary Conference Hosted from Manchester, England <https://conferencea.org> 25th Oct. 2022 [1]